



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil yanvar-sentyabr

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **7,7 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1,3 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **1,9 barobarga ko'proq**


Joriy yilning 9 oy yakuni bo'yicha viloyatda 1725 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33,6 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,5 foizga kamaygan hamda ularning soni 905 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 7,7 foiz (1003 ta) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14005 tani tashkil etgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (21,0 foiz), Denov (12,0 foiz), Jarqo'rg'on (8,1 foiz) va Sherobod 6,9 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Korxonalar va tashkilotlar

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, (%)



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,6 foizni tashkil etgan, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,4 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,3 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,5 foiz savdoda, 12,2 foiz sanoatda, 10,8 foiz qurulishda, 6,5 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,2 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,7 foiz tashish va saqlash, 1,7 foiz axborot va aloqa, 1,5 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,8 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-2,0 f.p.), boshqa turlarga (-1,2 f.p.), savdoda (-0,3 f.p.), kamayganligi, buning natijasida axborot va aloqada (+0,1 f.p.), sanoatda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,9 f.p.), qurulishda (+0,7 f.p.) shuningdek tashish va saqlashda (+0,6 f.p. dan) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) (%)

